

## GEPATIT C BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA GEMATOLOGIK KO'RSATKICHLAR VA MPV NING DIAGNOSTIK AHAMIYATI

*Uzoqova Oyjamol Narzullayevna*

*Samarqand Davlat Tibbiyotiyot Universiteti*

*Gematologiya kafedrasi assistenti*

*Murotkulov G'ayrat Akmalovich*

*Samarqand Davlat Tibbiyotiyot Universiteti*

*Davolash fakulteti 3-kurs talabasi*

*Yerimbetov Muratbay Koshkarbay Uli*

*Samarqand Davlat Tibbiyotiyot Universiteti*

*Davolash fakulteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Gepatit C virusi (HCV) keltirib chiqaradigan, jigarining yallig'lanishiga olib keluvchi yuqumli kasallikdir. Bu xavfli xastalik ko'pincha "sekin qotil" deb ataladi, chunki u yillar davomida hech qanday belgilersiz kechadi va jigar sirrozi yoki jigar saratoniga sabab bo'lishi mumkin hozirgi vaqtga kelib hepatit C kundan kunga oshib bormoqda va bu kasallik belgilersiz kechganligi sababli ko'plab asoratlarga olib kelmoqda shundan bir asorati bu DVS sindromidir. **DVS (Disseminatsiyalangan tomir ichi ivish) sindromi** - qon ivish tizimining o'ta xavfli buzilishi bo'lib, bunda qon tomirlarida mikrotromblar hosil bo'ladi va og'ir qon ketishlar yuzaga keladi. Bu asoratni oldini olish maqsadida ko'pgina tadqiqotlar o'tkazilgan hozirgi zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki trombositlarning o'lchami yani MPV ( Mean Platelet Volume) ham katta diagnostik ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotning maqsadi hepatit C virusining trombositlar soniga (PLT) va trombositlarning o'rtacha hajmiga (MPV) ta'sirini o'rganishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Gepatit C, DVS-sindromi, trombositlar, MPV, zamonaviy laborator diagnostika.

Trombositlar - qonning eng muhim shaklli elementlari (qon plastinkalari) bo'lib, ularning asosiy vazifasi qon ivishini ta'minlash va jarohatlanganda qon ketishini to'xtatishdan iborat. Ular suyak iligida hosil bo'ladi.

MPV (Mean Platelet Volume) - bu qondagi trombositlarning o'rtacha hajmini ko'rsatuvchi muhim qon tahlili ko'rsatkichidir. Kattalarda MPV ko'rsatkichi odatda **7,5 dan 11,5 fl** (femtolitr) gacha bo'lishi maqbul hisoblanadi. MPV ning yuqori bo'lishi: Suyak iligi trombositlarni tez ishlab chiqarayotganini bildiradi. Bu organizmda qon ketishi, yallig'lanish yuzaga kelishi mumkin. MPV ning past bo'lishi: Trombositlar hajmi kichrayganini anglatadi. Bu ko'pincha suyak iligi

faoliyatining pasayishi, ayrim medikamentlar ta'siri yoki surunkali yallig'lanish jarayonlari bilan bog'liq bo'ladi

**Tadqiqot materiallari va metodlar:** Tadqiqot o'tkazish maqsadida Samarqand viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasida 10.05.2024 yildan-12.05.2025 yilgacha gepatit C bilan o'g'rikan 58 nafar bemorlar o'rganildi. Barcha bemorlar umumiy qon tahlili, umumiy siydik tahlili, qon biokimyoviy tahlillar (umumiy bilirubin miqdori va ularning fraksiyalari, ASAT, ALAT va ishqoriy fashataza fermentlari, umumiy oqsil) va IFA tahlillari o'tkazildi. Tadqiqot o'tkazish maqsadida barcha bemorlar trombositlarning MPV ko'rsatkichlariga ko'ra II-guruhga bo'lindi. I-guruh 35 nafar bemorlardan tashkil topgan bo'lib, ularda trombositlar MPV ko'rsatkichi o'zgarmaganligi aniqlandi II-guruh bemorlarda 23 nafar bemordan tashkil topgan bo'lib, bu guruhda PLT ning MPV ko'rsatkichi o'zgarmaganligi aniqlandi.

**Tadqiqot natijasi:** I guruh bemorlar takshirganda quyidagi natijalar olindi. Umumiy qon tahlilida HB miqdori 22,8%(8) nafar bemorlarda og'ir anemiya, 60%(21) nafar bemorda o'rta og'ir anemiya va 17,14%(6) nafar bemorda yengil darajadagi anemiya aniqlandi. WBC 29%(10) nafar bemorlarda neytrofillar kamayishi va limfositlar oshishi kuzatildi. EChT oshishi 54%(19) nafar bemorlarda kuzatildi. II-guruh bemorlari tekshirilganda esa trombositlarning o'rtacha hajmi (MPV) o'zgarishi bilan bir qatorda trombositlar sonining (PLT) sezilarli kamayishi kuzatildi. Ushbu guruhdagi bemorlarda gemorragik sindrom belgilari, ya'ni milk qonashi, burundan qon ketishi va terida gemorragik toshmalar ko'proq uchradi. Umumiy qon tahlili natijalariga ko'ra, 34,7% (8) nafar bemorda og'ir darajadagi trombositopeniya, 47,8% (11) nafar bemorda o'rta darajadagi trombositopeniya hamda 17,3% (4) nafar bemorda yengil darajadagi trombositopeniya aniqlandi.

MPV ko'rsatkichining oshishi 65,2% (15) nafar bemorda kuzatilib, bu holat trombositlarning kompensator ravishda tez ishlab chiqarilayotganligini ko'rsatdi. Ayrim bemorlarda esa MPV pasayishi kuzatilib, bu suyak iligi faoliyatining susayganligi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

Biokimyoviy tekshiruvlarda ALAT va ASAT fermentlarining sezilarli oshishi kuzatildi. ALAT miqdorining oshishi 73,9% (17) nafar bemorda, ASAT oshishi esa 69,5% (16) nafar bemorda qayd etildi. Umumiy bilirubin miqdori oshishi 43,4% (10) nafar bemorda aniqlanib, bu gepatositlar zararlanishining kuchayganligini ko'rsatdi.

EChT oshishi II-guruhdagi bemorlarning 60,8% (14) nafarida kuzatildi. Bundan tashqari, leykotsitlar formulasida limfotsitoz va neytropeniya holatlari ko'proq uchrashi aniqlandi. Ushbu o'zgarishlar organizmda surunkali yallig'lanish jarayoni davom etayotganligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, gepatit C virusli bemorlarda trombositlar sonining kamayishi va MPV ko'rsatkichining o'zgarishi DVS-sindrom rivojlanish xavfini

baholashda muhim diagnostik ahamiyatga ega. Ayniqsa MPV ko‘rsatkichining oshishi trombositlarning funksional faolligi ortayotganligini va qon ivish tizimida chuqur o‘zgarishlar yuzaga kelayotganligini bildiradi.

**Xulosa:** Gepatit C virusli bemorlarda trombositlar soni (PLT) hamda trombositlarning o‘rtacha hajmi (MPV) ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi kasallikning kechishi va asoratlari baholashda muhim laborator mezon hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, MPV ko‘rsatkichining oshishi va trombositopeniya holatlari DVS-sindrom rivojlanish xavfi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, gepatit C bilan kasallangan bemorlarda biokimyoviy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi jigar hujayralari zararlanish darajasini ko‘rsatib berdi. MPV va PLT ko‘rsatkichlarini muntazam nazorat qilish orqali kasallik asoratlari erta aniqlash va og‘ir qon ketish holatlarining oldini olish mumkin.

Demak, zamonaviy laborator diagnostikada MPV ko‘rsatkichini baholash gepatit C bilan kasallangan bemorlarni monitoring qilishda va DVS-sindrom xavfini erta aniqlashda muhim diagnostik ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harrison's Principles of Internal Medicine - New York: McGraw-Hill Education, 2022.
2. World Health Organization. Guidelines for the prevention, diagnosis and treatment of hepatitis C. Geneva, 2023.
3. European Association for the Study of the Liver. Clinical Practice Guidelines on Hepatitis C, 2024.
4. Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease Elsevier, 2021.
5. Toshmatova Sh.A., Karimov B.X. Virusli gepatitlarda gemostaz tizimi buzilishlari. // Toshkent tibbiyot akademiyasi axboroti, 2022.
6. Axmedov Q.A. Klinik gematologiya asoslari. - Toshkent, 2021.
7. Centers for Disease Control and Prevention. Hepatitis C and coagulation disorders, 2024.
8. Ismoilov N.T., Rasulova D.A. Gepatit C kasalligida trombositlar ko'rsatkichlarining diagnostik ahamiyati. // Samarqand davlat tibbiyot universiteti ilmiy ishlari to'plami, 2023.